

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TURIZM SALOHIYATINI ORTTIRISHDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING ROLI

Sarsenbaeva Gulzada¹

Qoraqalpoq davlat universiteti

KEYWORDS

Qoraqalpog'iston Respublikasi, turizm salohiyati, kichik biznes, tadbirkorlik, ekoturizm, madaniy meros, mehmonxona xizmati, agroturizm, turistik xizmatlar, barqaror rivojlanish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirishda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining o'рни va ahamiyati yoritilgan. Mamlakatda mavjud tabiiy va madaniy resurslardan samarali foydalanish orqali hududiy turizmning barqaror o'sishini ta'minlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Amaliy misollar asosida kichik tadbirkorlik faoliyati orqali turizm xizmatlarini kengaytirish yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, sohaga oid dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15459431**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish. So'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu hudud o'zining boy madaniy merosi, noyob tabiiy manzaralari, arxeologik yodgorliklari va milliy urf-odatlar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari turizm salohiyatini kuchaytirishda asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda.

«2022 — 2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, ayniqsa, Mo'ynoq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va turizm salohiyatini targ'ib qiluvchi matnli, video materiallarni qoraqalpoq, o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlab, ommaviy axborot vositalarida, jumladan, televidenie va radioda muntazam yoritib boriladi hamda turistik ob'ektlarga tarqatiladi. Xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar, blogger va vlogerlar ishtirokida infoturlar tashkil qilinib, ular yoritib boriladi. Orolbo'yi mintaqasining ijtimoiy va

¹ Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada oshirish bo'yicha «Orol orzusi» dasturida belgilangan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda Turizm va madaniy meros vazirligi ikki oy muddatda Ellikqal'a tumanidagi «Sharq yulduzi» ovul fuqarolari yig'inining «Aqchako'l» hududida turistik dam olish maskanlari, savdo-ko'ngilochar xizmatlarini tashkil etish va shu maqsadda zarur infratuzilmani barpo qilish bo'yicha hududning bosh rejasi ishlab chiqiladi, ikki oy muddatda Jamg'arma mablag'lari hisobidan Chimboy tumani «Kokshiqal'a» mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib borayotgan o'tov (qora uy) tayyorlovchi hunarmandlar ustaxonalarini milliy ko'rinishda ta'mirlash va hududni obodonlashtirish ishlarini tashkil qiladi.[1]

Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm imkoniyatlari:

- Ayoq qal'a, Mizdahkon, Shilpiq kabi tarixiy yodgorliklar;
- Amudaryo, Sudochye ko'li, Ustyurt platosi kabi tabiiy hududlar;
- Nukus san'at muzeyi (Savitskiy muzeyi) – Markaziy Osiyodagi eng yirik badiiy kolleksiyalardan biri.

Kichik biznes subyektlarining imkoniyatlari:

- Mehmon uylari, xostellar, kempinglar ochish orqali turistik joylarda yashash sharoitlarini yaxshilash;
- Milliy hunarmandchilik va suvenirlar ishlab chiqarish orqali madaniy turizmni rag'batlantirish;
- Gastronomik turizm – an'anaviy qoraqalpoq taomlarini mehmonlarga tanishtirish;
- Ekskursiyalar, sayohat marshrutlari tashkil etish.

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasidagi kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining olib borayotgan sayi harakatlari bo'yicha amaliy misollar:

1. "Jipek Joli" mehmonxonalar tarmog'i (Nukus shahri):

Qoraqalpog'iston Respublikasining markazi – Nukus shahrida faoliyat yuritayotgan "Jipek Joli" mehmonxonasi kichik biznes subyekti bo'lishiga qaramasdan, xorijiy sayyohlar orasida katta obro'ga ega. Bu mehmonxona:

- mahalliy xodimlarni ish bilan ta'minlaydi;
- Qoraqalpoq urf-odatlarini aks ettiruvchi dizayn va xizmatlar bilan ajralib turadi;
- sayyohlarga milliy taomlar, qo'llanma xizmatlari va muzey ekskursiyalarini taklif etadi.[5]

2. Mo'ynoq shahridagi ekoturizm tashabbuslari:

Mo'ynoq – Orol dengizi fojiasi sabab ekologik turizm markaziga aylangan hudud bo'lib, bu yerda kichik tadbirkorlar tomonidan:

- eko-loyihalar, ya'ni ekologik mehmonxonalar tashkil etilmoqda;
- «Orol fojiasi» muzeyiga ekskursiyalar, qum ustida safari (desert tour), veloturlar yo'lga qo'yilgan;
- mahalliy ayollar tomonidan suvenir va milliy matolardan mahsulotlar tayyorlanib,

sayyohlarga taklif etilmoqda.

3. Qoraqalpoq milliy hunarmandchilik ustaxonalari:

Beruniy, Ellikqal'a va Qo'ng'iro't tumanlarida faoliyat yuritayotgan kichik ustaxonalar: Qo'l bilan to'qilgan gilam, tikuvchilik mahsulotlari, yog'och o'ymakorligi kabi buyumlar ishlab chiqarmoqda. Bu mahsulotlar turistik suvenir sifatida savdoga chiqariladi. Aksariyat ustaxonalar "ochiq ustaxona" tamoyili asosida ishlaydi – ya'ni sayyohlar ishlab chiqarish jarayonini ko'rishi, ishtirok etishi mumkin.[3]

4. Nukus atrofidagi agroturizm tashabbuslari:

Kichik fermer xo'jaliklari sayyohlarga: paxta, poliz mahsulotlari yoki chorvachilik faoliyati bilan tanishish imkoniyatini yaratmoqda.

Mahalliy taom tayyorlash ustaxonalarini yo'lga qo'ygan. Bu orqali turistlar nafaqat madaniyat, balki mahalliy hayot tarzi bilan ham yaqindan tanishadi.

5. Savitskiy san'at muzeyi bilan hamkorlik qilayotgan kichik bizneslar:

Muzey atrofida joylashgan kichik kafe, suvenir do'konlari va gidlik xizmatlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar:

- Muzeyga keluvchi sayyohlar oqimini jalb qilishda faol ishtirok etadi;
- Har xil ko'rgazmalar, fotosessiya zonalari, san'at ustaxonalari tashkil qiladi.[4]

Quyida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini olib borishda to'sqinlik qiluvchi muammolar keltirilgan:

- Moliyalashtirish va kreditga kirishish imkoniyatlarining cheklangani;
- Infratuzilmaning sust rivojlangani;
- Marketing va reklama yetarli darajada olib borilmagani.[2]

Xulosa qilib aytganda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki yangi ish o'rinlarini yaratishga va madaniy merosni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Ularni qo'llab-quvvatlash orqali mintaqaning jahon turizm xaritasidagi o'rni mustahkamlanadi. Shu bilan birga mavzuga oid bir qator taklif va tavsiyalar: davlat tomonidan kichik turistik biznes loyihalariga grant va imtiyozli kreditlar ajratish; turistik hududlarda ko'makchi infratuzilmani rivojlantirish (yo'llar, internet, belgilar); tadbirkorlar uchun treninglar va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.09.2022 yildagi 545-son
2. Mamatqulov A.A. "Hududiy turizmni rivojlantirishda kichik tadbirkorlikning o'rni." – Ilmiy maqola. // "Ijtimoiy fanlar" jurnali, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi hisobotlari – <https://uzbektourism.uz>
4. Savitskiy san'at muzeyi rasmiy sayti – <https://museum.kr.uz>
5. Hotels and Tourism Data for Uzbekistan – <https://serviced-apartments.in/statistics/hotels/asia/uzbekistan>